

XIVADA MATBAA ISHINING SHAKLLANISHI VA UNING QORAQALPOG‘ISTON BILAN MADANIY ALOQALARI TARIXI

Nzanova Seregul Kungradbaevna,

Qoraqalpoq davlat universiteti katta o‘qituvchisi
seregulnzanova393@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad II davrida Xiva hududida shakllangan tipografiya va kitobat madaniyatining rivojlanishi hamda uning Qoraqalpog‘iston hududidagi madaniy jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda xattotlik, kitob bezagi, arab yozuvi asosidagi matnlarni ko‘paytirish usullari va ularning Qoraqalpog‘iston hududida ilm-ma‘rifat tarqalishidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, tarixiy manbalar asosida Xiva va Qoraqalpog‘iston o‘rtasidagi madaniy aloqalar hamda tipografiya san‘atining mintaqaviy taraqqiyotdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalari milliy madaniy merosni o‘rganish va saqlashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Xiva, tipografiya, kitobat madaniyati, xattotlik, kitob bezagi, matnlarni ko‘paytirish, Qoraqalpog‘iston, madaniy aloqalar, ilm-ma‘rifat, madaniy meros, mintaqaviy taraqqiyot.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие типографии и книжной культуры, сформировавшихся в Хиве в период правления Мухаммад II, а также их влияние на культурные процессы на территории Республики Каракалпакстан. В исследовании освещаются искусство каллиграфии, книжного оформления, методы тиражирования текстов на основе арабской письменности и их роль в распространении науки и просвещения в Каракалпакстане. Кроме того, на основе исторических источников раскрываются культурные связи между Хивой и Каракалпакстаном, а также значение типографического искусства в региональном развитии. Результаты статьи служат важным научным источником для изучения и сохранения национального культурного наследия.

Ключевые слова: Хива, типография, книжная культура, каллиграфия, книжное оформление, тиражирование текстов, Каракалпакстан, культурные связи, просвещение, наука, региональное развитие.

Abstract. This article analyzes the development of typography and book culture that emerged in Khiva during the reign of Muhammad II, as well as their influence on cultural processes in the Republic of Karakalpakstan. The study highlights the art of calligraphy, book design, methods of reproducing texts based on the Arabic script, and their role in the dissemination of science and education in Karakalpakstan. In addition, based on historical sources, the article reveals the cultural ties between Khiva and Karakalpakstan, as well as the significance of typographic art in regional development. The results of the study serve as an important scholarly source for the study and preservation of national cultural heritage.

Keywords: Khiva, typography, book culture, calligraphy, book design, text reproduction, Karakalpakstan, cultural relations, education, science, regional development.

Kirish. Xiva qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyoning eng yirik ilm-fan va madaniy markazlaridan biri sifatida tanilgan. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon II (1844–1910) boshqargan yillarda mamlakatda ilm-fan, ta’lim, xattotlik va kitob madaniyati rivojlanib, matbaachilik sanoati shakllandi; qo‘lyozmalardan nusxa ko‘chirish, bezash va tarqatish ishlari yuqori darajaga ko‘tarilib, xalqning ma’naviy hayotida muhim o‘rin egalladi. Xiva hududida shakllangan kitob madaniyati va matbaachilik sanoatining rivojlanishi nafaqat mahalliy madaniyatning yuksalishiga ta’sir ko‘rsatdi, balki qo‘shni Qoraqalpog‘istonning ham ilmiy va madaniy taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bugungi kunda milliy-madaniy merosni o‘rganish va saqlash eng muhim vazifalardan biri

hisoblanadi. Shuning uchun ham maqolaning maqsadi Xiva hududida shakllangan matbaachilik va kitob madaniyatining rivojlanish bosqichlarini o'rganish hamda uning Qoraqalpog'iston hududidagi madaniy aloqalarga ta'sirini yoritib berishdan iboratdir.

Metodlar va materiallar. Tadqiqotning materiallar bazasini XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid Xiva xonligi toshbosma asarlari, saroy arxiv hujjatlari hamda tarixiy-biografik manbalar (A.N. Samoylovich, N. Komilov va S. Nurjanov tadqiqotlari) tashkil etadi. Metodologik jihatdan ishda qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimlilik va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Xiva litografiya sanoatining texnik xususiyatlari hamda uning Qoraqalpog'iston davriy matbuoti va ma'rifat tizimiga o'tkazgan madaniy ta'siri xronologik va tarkibiy tahlil usullari orqali ochib berildi.

Natijalar va Munozara. Xivada milliy matbaa ishining shakllanish tarixi. XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar butun O'rta Osiyoda biror-bir milliy matbaa korxonasi bo'lmagan. Ushbu hududda milliy matbaani tashkil etish birinchi marta Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ga nasib etdi. To'g'ri, bu vaqtda Toshkentda Turkiston harbiy okrugining tipografiyasi mavjud edi. Garchi u 1867-yil 14-iyuldan boshlab ishlab turgan bo'lsa-da, faqat dastlabki o'n yillikda o'zining shtab varaqalari (listovka), kitobchalar, bloknot va blanka qog'ozlarinigina chop etgan. Boshqa tashkilotlarning buyurtmalarini qabul qilmagan, milliy kitoblarni bosmagan, gazeta va jurnallar ham chiqarmagan [1:117].

Muhammad Rahimxon II Feruz xonlik qilgan davrda (1844–1910) Xivada ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojlandi. Xivaning so'nggi hukmdorlaridan biri bo'lgan Muhammad Rahimxon II o'z bobosining yo'lini tutdi. U o'z tashabbusi bilan 1874-yili saroyda litografiya (toshbosma) tashkil qildi.

Bu yerda Navoiy, Shermuhammad Munis, Ogahiy va Komil Xorazmiylarning asarlari chop etildi. Shuning bilan birga, Muhammad Rahimxon II saroyda tarjima maktabiga ham asos soldi. Ushbu maktabda boshqa tillardan turkiy tilga turli janrdagi kitoblar tarjima qilib turildi. Asosan, fors tilidan badiiy-didaktik asarlar tarjima qilingan. N. Komilovning mehnatida saroy tarjima maktabida 80 dan ortiq kishi tarjimon bo'lib xizmat qilgani bayon etilgan [4].

Muhammad Rahimxon Feruzning bevosita tashabbusi bilan saroy kutubxonasida saqlanib kelayotgan bebaho qo'lyozma asarlarni hamda mahalliy shoirlarning devonlari va to'plamlarini kitob holida chop etish maqsadida, Xivaga matbaa sanoati rivojlangan Eron davlatidan toshbosma (litografiya) kitob bosish uskunalari keltirildi. Turkman kitobshunos olimi A. Yazberdiyev ushbu toshbosma uskunalari xon uchun Jenevadan (Shveyvariya) keltirilgan, degan fikrni ham bildirgan. Biroq, tadqiqotchi H. Alimov bu fikrni tasdiqlovchi aniq manba ko'rsatilmaganligi sababli unga qo'shilish qiyinligini ta'kidlab o'tgan. Feruzning toshbosmaxonasida uning bevosita ko'rsatmasi bilan Alisher Navoiyning "Chor devon" va "Xamsa" asarlari birinchi marta chop etildi. Shuningdek, Munis, Ogahiy, Komil, Bayoniy, Mirzo, Avaz O'tar, Devoniy, Niyoziy, Chokar kabi shoirlarning asarlari ko'plab nusxalarda bosilib chiqdi. Litografiya usulining afzalligi — tipografiyadagi kabi

harf terish usulidan ko'ra, matnning oldindan qog'oz betiga yozilgan va tosh qolipga teskari tushirilgan ko'chirmasidan nusxa olish usuli (litografiya) Xivada qo'llandi. Kitob bosishning aynan ushbu usuli tanlanishining asosiy sabablaridan biri, bu usul kitob bosish jarayonida xattot (kátip) xizmatidan uzviy bo'lak sifatida foydalanishga asoslanganligidir. Bu esa qo'lyozmachilikning ko'p ming yillik an'alarini to'xtatib qo'ymadi. Xattotlarning mahorati va qobiliyatini to'laroq namoyon etish uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Xiva saroyi toshbosmasi haqida dastlabki ma'lumotni bergan rus olimi A. N. Samoylovich bo'ldi. U 1908-yilning 17-mayidan 2-iyun kuniga qadar Xiva xonligida bo'lgan va toshbosmani o'z ko'zi bilan ko'rgan. Uning «Xiva saroyi kitobxonasi va toshbosmasi» deb nomlangan asarida ushbu korxonaning faoliyati ta'riflangan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Xivada matbaa ishi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lmaganligi sababli toshbosma ishini yo'lga qo'yish uchun Erondan Ibrohim Sulton ismli mutaxassis chaqirilgan. Erondan maxsus (shartnoma asosida) chaqirilgan matbaa xodimi tomonidan 1874-yilda toshbosma uskunalari xon saroyiga o'rnatilgan. Shuning uchun ham Xivada bosilgan kitoblar tashqi ko'rinishi bo'yicha Eron nashrlariga o'xshab ketadi. Tadqiqotchilarning taxminiga ko'ra, Ibrohim Sulton dastlab Erondan keltirilgan qul bo'lgan. Keyinchalik ruslarning kelishi bilan ozod etilgan. Uning bilimli va yetuk shoir ekanligini hisobga olib, xon uni saroyga ishga taklif qiladi.

Ibrohim Sulton Xorazmda kitobga bo'lgan talabni ko'rib, xonning ruxsati bilan ota yurti Erondan toshbosmani keltirgan. Bu fikrni jadiclardan biri Bekjon Rahmon o'g'li o'zining «Ozodnoma» nomli asarida tasdiqlaydi: «Bu qo'zg'olonning boshlig'i Xivada dastlab toshbosma sanoatini tashkil qilgan taniqli Ibrohim hisoblanadi. Shuning uchun bu kishiga shunday zamonlarda "Sulton" laqabi berilganligidan Ibrohim Sulton der edilar». Xiva toshbosmasida chop etilgan asarlarda Ibrohim Sultonning she'riy misralari va tarixga oid qatorlari berilganligi, uning Bayoniy aytganidek «shoiri xushbayon» (shirinso'z shoir) ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, Xivada toshbosmaning (litografiyaning) tashkil etilishi bevosita Eron ta'siri ostida, Ibrohim Sultonning ko'magi bilan yuzaga kelgan. Matbaa ishi mutaxassisi Ibrohim Sulton tomonidan 1874-yilda toshbosma ishga tushiriladi. Manbalarga ko'ra, u ikki yil davomida bir qancha kitobcha va kichik matnlarni chop etish bilan birga, mahalliy shogirdlarga ham ushbu hunarni o'rgatib, Ashxobodga ko'chib ketadi. G.N. Chabrov esa uni toshbosmada 5 yil ishlagandan keyin o'z yurtiga qaytgan, deb ko'rsatadi. Aslida esa toshbosmada hijriy 1301-yilda (milodiy 1884) bosilgan kitoblarda ham Ibrohim Sultonning ismi uchraydi. Demak, u ketgan bo'lsa ham, 1884-yildan keyin ketgan bo'lishi mumkin. Uning shogirdlaridan biri Otajon Abdalov (1856–1939) edi.

Otajon Abdalov Ibrohim Sulton ketganidan keyin uning shogirdi sifatida bosmaxona ishini qo'lga oldi va xalq orasida "Otajon bosma" laqabi bilan tanildi. Shuni aytib o'tish kerakki, toshbosmada bosilgan kitoblarda uning ismi XX asrning boshlarida chiqqan

nusxalarda uchraydi. A.N. Samoylovich Xiva toshbosmasi haqida yozganda, noma'lum sabablarga ko'ra uning ismini tilga olmagan.

1910-yilda Muhammad Rahimxon Feruzning vafot etishi bilan toshbosma ishlari to'xtab qolgan degan fikrlar mavjud. Masalan, E. Oxunjanov Xiva toshbosmasining faoliyatini 1874-yildan 1910-yilgacha deb hisoblaydi. Biroq, Isfandiyorxon davrida ham kitob bosish davom etgani haqiqatga yaqin. Chunki uning xonlik davrida milliy uyg'onish davri boshlanib, telegraf, shifoxona va yangi madrasalar qurilgan. Hatto o'sha vaqtda ikkinchi matbaa — Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l) shahridagi K.V. Novikov bosmaxonasi ishga tushirilgan.

Qoraqalpog'iston hududida matbaa ishining shakllanishi va rivojlanishi haqida qimmatli fikrlar bildirgan S. Nurjanovning mehnatida: "Qoraqalpog'iston hududida davriy matbuotning (periodik nashrlar) paydo bo'lishi, XIX asrdayoq Xorazm vohasi hududida yuzaga kelgan bosmaxona ishi bilan bevosita bog'liq", deb aytilgan. Tarixdan ma'lumki, matbaa ishi yo'lga qo'yilgunga qadar Qoraqalpog'iston sharoitida xabar yetkazishning asosiy shakli og'zaki bo'lgan. Biroq bu, bizning hududimizda unga qadar kitob bosilib chiqarilmagan degan ma'noni anglatmaydi.

Qadim zamonlardan buyon xalqimiz orasida boshqa shaharlardan sotib olingan hamda xattotlar tomonidan go'zal qilib ko'chirilgan adabiy, diniy kitoblar, Qur'on nusxalari keng tarqalgan. XVIII–XIX asrlarda qoraqalpoqlar orasida bo'lgan chet ellik va rus sayohatchilari, elchilar, ilm-fan tadqiqotchilari o'lkamizda madaniy va moddiy yodgorliklar ko'p ekanligini, ayniqsa, masjidlarning kutubxonalarida turli xil kitoblar, qo'lyozmalar saqlanib kelinganini yozadi. Shuningdek, qoraqalpoqning yosh mullalari Xiva, Buxoro, Qozon, Ufa va Orenburg shaharlaridagi madrasalarda o'qigani, o'sha shaharlardan turli kitoblar olib kelib, xalqqa tarqatgani so'z etilgan.

XIX asr o'rtalarida qoraqalpoqlar orasida Qozondan olib kelingan kitoblar keng tarqaladi va bu Amudaryoning quyi oqimida yashovchi mahalliy ziyoli xalq vakillarining o'z bosmaxonalarini ochishiga sabab bo'ladi. Binobarin, 1868-yili eronlik Ibrohim Sulton va uning shogirdi Otajon Abdalov o'zining shaxsiy bosmaxonasini ochadi va 1917-yilgacha adabiyot, tarix hamda madaniyatga oid yuzdan ortiq kitob chop etadi.

Qoraqalpog'iston hududida qoraqalpoq tilidagi gazetaning bosib chiqarilishida Xivadagi tipografiyaning, unda xizmat qilgan Otajon Abdalovning ishtiroki haqida U. Suvnovning mehnatida ta'kidlab o'tilgan. Dastlabki tadqiqotchilardan biri U. Suvnov o'z maqolalarida qoraqalpoq matbuotining paydo bo'lishi haqida bir qancha fikrlarni bildiradi. U 1920–30-yillarning boshlarida matbuotning shakllanish tarixini o'rganib, 1918–1920-yillarda Amudaryo oblastida arab va rus shriftlaridagi varaqalar (chaqiriq qog'ozlari), 1920-yillarning boshlarida esa "Izvestiya Oblispolkoma" ("Oblispolkom yangiliklari") deb nomlangan varaqalar bosmadan chiqarilganini aytadi. Muallifning ko'rsatishicha, 1925-yilning boshida Qoraqalpog'iston partiya obkomi RKP(b) Qozog'iston kraykomidan (Kazkraykom) qoraqalpoq tilida gazeta va boshqa turli adabiyotlarni bosib chiqarishda

qo‘llab-quvvatlashni so‘raydi. Bunga tushuntirish sifatida bosmaxonaning og‘ir moddiy ahvolini, uskunalar, mablag‘, shriftlar, bo‘yoqlar, shuningdek, savodli mutaxassislar — muxbirlar va harf teruvchi xodimlarning yo‘qligini ko‘rsatadi. To‘rtko‘l bosmaxonasida ishlash uchun Xivadan taniqli o‘zbek bosmaxonachisi Otajon Abdalov va u bilan birga 2 nafar texnik xodim chaqirilganini aytib o‘tadi [2].

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Xivada matbaa ishining paydo bo‘lishi adabiyot va madaniyatning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Xattotlik san‘ati bilan birga rivojlangan ushbu kasb, keyinchalik milliy san‘at namunalari bilan boyidi. Xiva toshbosmasining ishga tushirilishi Xorazm madaniyatining qo‘shni xonliklarga qaraganda tezroq yuksalishiga zamin bo‘ldi. Muhammad Rahimxon II tashabbusi bilan saroy kutubxonasida saqlanib kelayotgan nodir va bebaho kitoblarni qaytadan bosish maqsadida Erondan toshbosma (litografiya) uskunolari Xivaga olib kelinadi. Xivalik Otajon Abdalov ismli shaxs ushbu litografiyani chuqur o‘rganib, shu kasb bo‘yicha mutaxassisga aylanadi. U rus, arab, fors tillarini mukammal bilgan. 1876-yilda Muhammad Rahimxonga kitob matbaasining dastlabki namunasi — “Nisobus sibyon” kitobini bosib beradi. Bu nafaqat Xivada, balki Markaziy Osiyoda birinchi bosma kitob hisoblanadi.

Muhammad Rahimxon II davrida shakllangan litotipografiya XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida qoraqalpoq xalqining ma‘naviy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Xivada bosilib chiqqan diniy, adabiy, tarixiy va darslik kitoblar qoraqalpoqlar orasida ilm-ma‘rifat tarqatishga, savodxonlik darajasini oshirishga va milliy madaniy merosni saqlashga xizmat qildi. Bosmaxona orqali tarqalgan asarlar qoraqalpoq yozma adabiyotining shakllanishiga, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Shuning bilan birga, Xiva matbaasi Qoraqalpog‘iston va Xorazm o‘rtasidagi madaniy aloqalarning shakllanishiga hissa qo‘shdi. Bugun ushbu meros qoraqalpoq xalqining kitob madaniyati tarixini o‘rganishda qimmatli manba sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni chuqur tadqiq etish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun ham umumiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рустамов М.И. Книга в Средней Азии // Книга. Иссл. и материалы. Сб. 25. – Мос ква, 1972
2. Суинов У. Первая из газет Амударьинской области// Вестник ККФ АН УзССР. 1964. №4
3. Нуржанов С.У. Возникновение и становление национальной-периодической печати Каракалпакстана. Проблемы востоковедения. 2025/1 (107). С. 64-70
4. Камилов Н. Хорезмская школа перевода: Проблемы типологии и сопоставительное исследование перевода в XIX в. АДД. – Ташкент, 1987. – С.12.
5. Аминов Х. Хивадаги ilk ўзбек матбааси. «INFOLIB» ахборот-кутубхона журнали 10.47267/2181-8207/2020/2-009
6. Самойлович А.Н. Материалы по истории каракалпаков. Сборник. Труды института востоковедения. Том VII. Москва. 1935.
7. Сабиров А. Хивинская литография и ее значение для низовьев Амударьи/Вестник ККФ АН УзССР. 1983. №3. С. 48.

8. Nzanova S.K. Qoraqalpog‘iston nashriyot ishi tarixining o‘rganilishi: istoriografik tahlil va rivojlanish bosqichlari. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 10-son B seriya. B. 874-879

